

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

«TASDIQLAYMAN»



**Urganch davlat pedagogika instituti
rektori** *J.R. Yarmetov*

“03” 07 2023-yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA “O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” FANI
MAVJUD BARCHA TURDAGI YO‘NALISHLAR (KO‘ZI OJIZLAR)
UCHUN DASTUR**

Dastur Urganch davlat pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 03-iyuldagi 10- sonli majlisda ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Tuzuvchi:

M.F.Matquliyeva - Umumiy filologiya kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

N.Yakubova – Umumiy filologiya kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.Atajonova – UrDPI Pedagogika fakulteti Pedagogika, boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

N.Sobirova – XVXTXQT va ularning MOHM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri, f.f.d. (DSc):

KIRISH

O‘zbek tili va adabiyotining grammatik xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi darsliklarida yoritilgan.

Til va jamiyat, fonetika, orfografiya, orfoepiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo‘limlar hamda adabiyot, so‘z san’ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og‘zaki ijodi, janrlari, uyg‘onish davri adabiyoti, yangi davr o‘zbek adabiyoti, ma’rifatparvarlik davri adabiyoti, jadid adabiyoti, sho‘ro davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo‘yicha berilgan mavzular o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsad va vazifalari

Ushbu dastur bo‘lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadi.

Bunda: abiturentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantira olish maqsadi qo‘yiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda o‘zbek tili grammatikasi asoslarini o‘zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni, yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni o‘rganish, badiiy san’at turlarini bilish tahlil qila olish ko‘nikmalkariga ega bo‘lish ko‘zda tutilgan.

Abiturientning bilimiga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbek tili va adabiyoti” (ko‘zi oqizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko‘ra, o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘zlashtirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-o‘zbek tili fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturent:

-adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik me’yorlarini;

-orfografiya, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini;

-lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi qoidalarini;

-tilshunoslikning har bir bo‘limlari bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim dasturlari mazmunidagi ma’lumotlarni;

-grammatik tahlil qilish ko'nikmasini bilishi kerak;

-adabiyot fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturent:

-so'z san'ati, adabiyotning tarkibiy qismlarini;

-adabiyot nazariyasini, she'riy janrlarni;

-mumtoz adabiyot bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim dasturlari mavzularini;

-hozirgi o'zbek adabiyoti bo'yicha mavzularni;

-badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmasini bilishi kerak.

Fanning mazmuni

O'zbek tili

Til va jamiyat. Tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Tilning aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. Fonema, urg'u, bo'g'in, takt tushunchalari. Fonetik o'zgarishlar: tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me'yorlari. Orfoepiya me'yorlari asosidagi tovush o'zgarishlari: assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza.

Orfografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv va shakily yozuv qoidalari

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi.

Leksikologiya. So'z va ma'no. Lug'aviy ma'no va grammatik ma'no. O'z ma'no va ko'chma ma'no. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'z va leksema. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari: shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik va paronimlik munosabatlari.

Tartixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Tarixiy so'zlar, arxaizmlar, neologizmlar.

O'zbek tilining lug'at boyligi. Qo'llanish doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Hududiy chegaralangan so'zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so'zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Terminologiya (atamashunoslik).

Lugʻat boyligining ortib borish masalalari. Ichki manba, tashqi manba. Olinma soʻzlar.

Barqaror birikmalar: maqol-matallar, iboralar, hikmatli soʻzlar (aforizmlar)

Leksikografiya. Lugʻat va uning turlari. Ensiklopedik lugʻatlar, filologik lugʻatlar.

Morfemika. Soʻz tarkibi. Oʻzak morfema, affiksial morfema. Affiksial morfemaning vazifasiga koʻra turlari: soʻz yasovchi, shakl yasovchi (lugʻaviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qoʻshimchalar

Grammatika. Morfologiya va sintaksis. Morfologiya—soʻz turkumlari, grammatik maʼno va grammatik shakl haqidagi boʻlim sifatida.

Soʻz turkumlari. Toʻplam va tasnif. Mustaqil soʻz turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari, otning lugʻaviy shakllari, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: egalik va kelishik shakllari.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar.

Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (oʻlchov) soʻzlari.

Olmosh. Olmoshning maʼno turlari. Kishilik olmoshlari. Koʻrsatish olmoshlari. Oʻzlik olmoshi. Soʻroq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Boʻlishsizlik olmoshlari. Gumon olmoshlari.

Ismlar. Soʻzlarni turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid soʻzlarning ismlik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari.

Feʼl. Feʼllarning maʼno turlari: harakat va holat feʼllari. Tuslanish. Feʼllarda zamon, mayl, boʻlishli-boʻlishsizlik tushunchalarning ifodalanishi. Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar. Feʼllar nisbatlari. Koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi (harakat tarzi shakllari).

Ravish. Ravishning maʼno turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlanib qolishi.

Yordamchi soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.

Undov soʻzlar. Taqlid soʻzlar. Modal soʻzlar.

Sintaksis. Soʻz birikmasi. Soʻz birikmasining bogʻlanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Soʻz birikmasi turlari: otli birikma va feʼlli birikma.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari: darak gap, soʻroq gap, buyruq gap, istak gap.

Gapning his-hayajon ishtirokiga koʻra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modallikka (voqelikka munosabatiga) ko'ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi: sodda gap va qo'shma gap.

Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog'lama. Murakkab ot-kesim va ega o'rtasida tirening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo'laklari: ajratilgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gap bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan bo'laklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Sodda yig'iq gap. Sodda yoyiq gap. To'liq gap va to'liqsiz gap. Gap bo'laklari tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. Havola bo'lakli qo'shma gap. Qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuatsiya. Tinish belgilarning qo'llanilishi.

Adabiyot

Adabiyot-so'z san'ati. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid.

Adabiyot nazariyasi. Adabiy turlar va janrlar. Lirik tur (she'riyat), epik tur (nabr), dramatik tur.

She'riy janrlar: g'azal, mustazod, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard (muammo), chiston (lug'z), munozara, tarkibband, tarji'band, qasida, marsiya. Muasammalar: masallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba',

musamman, mustasne', muashshar. Zamonaviy she'riy janrlar: sonet, oq she'r, sarbast, erkin she'r, to'rtlik.

She'riy (badiiy) san'atlarning tasvir yaratishdagi o'rni. Mubolag'a, tafrit (litota), tashbeh, talmeh, tajnis, iyhom, tazod, ishtiyoq, husni ta'lil, tamsil, irsoli masal, jinlantirish, istiora, tanosib, kitobat (harf), tarse', tardu aks san'atlari. Portret, peyjaj, allegoriya, alleteratsiya, epifora, epitet usullari.

She'r tizimi: barmoq vazni va aruz vazni.

Epik tur (nasr): katta hajmdagi epik asarlar, o'rta hajmdagi epik asarlar, kichik hajmdagi epik asarlar. Roman va uning turlari: qissa. Hikoya. Ertak.

Dramatik tur: drama, komediya, tragediya. Drama va uning turlari.

Adabiyot tarixi.

Xalq og'zaki ijodi. Xalq og'zaki ijodi janrlari. Mehnat qo'shiqlari.

Adabiyot tarixini davrlashtirish. Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot (VIII).

Eng qadimgi yodgorliklar: O'rxun-Enasoy obidalari, "Avesto".

Islom davridagi turkiy adabiyot (VIII-XVII asrlar).

1. Ilk uyg'onish davri adabiyoti: Mihaddislar. Imom Ismoil al-Buxoriy. Qomusiy olimlar: Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino. Ilk uyg'onish davridagi yozma yodgorliklar. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". Mahmud Koshg'ariy. "Devoni lug'ati-t-turk". Ahmad Yassaviy. "Hikmatlar". Ahmad Yuknakiy. "Hibat-ul-haqoyiq". Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy. "Qissasi Rabg'uziy".
2. Uyg'onish davri adabiyoti; Xorazmiy. Atoiy. Sayfi Saroyi. Lutfiy. Alisher Navoiy. Hayoti va ijodi. "Xazoyin ul-maoniy". "Xamsa". Zahiriddin Muhammad Bobur. Hayot va ijodi. "Boburnoma".
3. Xonliklar davri o'zbek adabiyoti. Turdi Farog'iy ijodi. Mashrab lirikasi. Gulxaniy. "Zarbulmasal". Uvaysiy hayoti va ijodi. Nodira lirikasi. Munis hayoti va ijodi. Ogahiy lirikasi. "Ta'viz-ul oshiqin".
Yangi davr o'zbek adabiyoti (XIX asrning 60-yillaridan):
 - 1) ma'rifatparvarlik adabiyoti: Avaz O'tar, Komil Xorazmiy, Furqat, Zavqiy, Muqumiy.
 - 2) jadid adabiyoti: Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Hamza, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy.
 - 3) sho'rolar davri adabiyoti: G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, O'tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov.
 - 4) mustaqillik davri o'zbek adabiyoti.
- Jahon adabiyoti. Firdavsiyning "Shohnoma" asari. Ezop masallari. Antuan Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda". Gans Xristian Andersen. "Bulbul". Nodar Dumbadze. "Hellados". Chingiz Aytmatov. "Oq kema".

KASBIY (IJODIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko'zi o'jizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'jizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abiturientlarning javobi 5 (“a’lo”)ga baholanishi uchun:

- mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritilishi;
- mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;
- fakt va misollardan o'rinli foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;
- talab doirasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo'lishi;
- nutqi ravon bo'lib, fikrni adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi zarur.

2. Abiturientlarning javobi 4 (“yaxshi”)ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini atroflicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;
- mustaqil fikrlashga intilish;
- fikrlarni izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lish;
- nutqida mantiqiylik, ravonlik, obrazlilik ko'zga tashlanib turishi;
- manbalardan, fakt va misollardan o'rinli foydalana olish;
- filologik va ijtimoiy-siyosiy savonxonligi yetarli bo'lishi;
- fikrini adabiy tilda to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abiturientlarning javobi 3 (“qoniqarli”)ga baholanishi uchun:

- mavzuni mohiyatini churroq ochib berishi, notiqlik qobiliyati sezilib turishi;
- so'z san'ati va nutq madaniyati haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo'lishi;
- so'zni bir qadar nozikroq idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;
- fikrni bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo'lishi;
- fakt va misollardan to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

4. Abiturientlarning javobi quyidagi hollarda 2 (“qoniqarsiz”)ga baholanadi:

- mavzu mohiyati yetarli darajada ochilmasa;
- tilshunoslik bo'limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmasa;
- fikrni ifodalashda g'alizlik uchrashi;
- abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo'lsa;
- fikrlash doirasi tor bo'lsa;
- fikr bayoni izchil bo'lmasa;
- nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari o'tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norozi abituriendlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyasiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abiturient ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida apellyasiya komissiyasiga murojaat etishi mumkin. Aks holda, ko'rsatilgan muddatdan keyin qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaat ko'rib chiqiladi va 24 soat ichida xulosalar ma'lum qilinadi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

E.Xudoynazarov